



TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRARISHI

2023- YIL YANVAR
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-202-80-46

Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2023- yil yanvar oyida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar oyida shahar korxonalari tomonidan 5,8 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 100,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (68,5 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4,0 trln. so'mni tashkil etdi.




B – Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat **D** – Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 7,3 % ga o'sishi kuzatildi. Gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashning - 44,4 % ga, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 37,8 % ga hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash - 8,2 %, pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,3 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 23,0 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar oyida, % da)




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Gaz kondensati




Tabiiy gaz




Neft



Shagʻal



Chaqiq tosh




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Neft, ming t.	52,2	56,3	4,1
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	3 138,9	2 924,9	-214,0
Gaz kondensati, ming t.	67,1	57,6	-9,5
Chaqiq tosh ming t.	30,8	8,4	-22,4


Shagʻal t.

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,0 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 68,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar oyida, % da)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 14,1 % ni (2022- yilning yanvar oyida – 20,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 20,7 % (18,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 23,4 % (24,4 %) va quyi texnologiyalisi – 41,8 % (36,4%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalari ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 35,0 % (2022- yilning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 12,1 % (2022- yilning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 152,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,1 % (2022- yilning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 25,9 % (2022- yilning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,4 % (2022- yilning yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,4 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2023- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 981,1 tonna makaron va shunga o'xshash un mahsulotlari (36,0 % ga oshgan), 1,5 ming litr aroq 100% spirt (1,7 % ga oshgan), 83 tonna qayta tiklangan va boshqa gofrirovka uchun qog'oz (18,1 %) hamda 1,5 ming tonna mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj matolari (24,1 %) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna.	5,4	13,1	7,7
Paxta kalavasi, ming tonna.	3,3	2,5	-0,8
Margarin va yormalar tonna.	441,3	176,9	-264,4
Pivo – mln litr	3,0	2,3	-0,7
Traktorlar - dona		5,0	
Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona	14,7	19,8	5,1
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.	1 240,0	166,0	-1 074,0
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	211,7	101,8	-109,9


Metallurgiya sanoati
(yanvar)



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(yanvar oyida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 1,1 % ga kamaygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyida yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 49,3 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 105,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar oyida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyida yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,1 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 14,1 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 683,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar oyida)

FHI
% da




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 17,1 % ga oshgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyida yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 91,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 328,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 96,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 11,9 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 266,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar oyida)



FHI
% da




2022- yilning yanvar oyida yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 45,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi 105,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 90,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar oyida)

2022- yilning yanvar oyida yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 99,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi 21,0 % ga ko'paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 112,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar oyida)




2022- yilning yanvar oyida yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 63,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 2,0 % kamaygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 13,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar oyida)



2022- yilning yanvar oyida yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 81,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 35,0 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 114,3%ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 1395,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar oyida)

2022- yilning yanvar oyida yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 123,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 108,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 104,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar oyida

trln.
so'm



FHI
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,4 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (11,1 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,7 % ga kamayganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,
(yanvar oyida, % da)**




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	46,1	46,5	0,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1808,0	1604,3	-203,7
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so 'm.	74,5	85,8	11,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

yanvar oyida



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat

mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,
(yanvar oyida, % da)




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mlrd.so‘m	12,6	14,1	1,5
(Xavfli bo‘lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	15,8	15,5	-0,3
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta‘minlash, mlrd. so‘m	20,2	21,7	1,5

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo‘lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo‘yicha xizmatlar 2,2 % ga kamaydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta‘minlash 7,6 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 12,3 % ga o‘shish kuzatildi.

Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,6 trln.so‘mni tashkil etdi

va 2023- yilning mos davriga nisbatan 90,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 27,2 % ni tashkil etdi.



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1,7 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,8 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2023- yil 1 fevral holatiga koʻra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 15,9 mingta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda.

2023- yilning fevral oyida shaharda 114 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi